
Qabul davomida murojaatlarning ijobiy yechim topishiga alohida e'tibor qaratildi

Bugun Rishton tumani hokimi tomonidan jismoniy va yuridik shaxslar uchun navbatdagi qabul o'tkazildi. Xalq qabulxonasida bo'lib o'tgan qabulda sektor rahbari va hokim o'rinbosarlari ham ishtirok etishdi. Bugungi qabul davomida 40 nafarga yaqin fuqarolardan tushgan murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Yigirmaga yaqin murojaatlar ijobiy hal qilindi. Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, tashkilot va bo'limlarga topshiriqlar berildi. Shuningdek, tuman hokimi murojaatlarning ijobiy hal etilish darajasini ham muhokama qildi. Belgilangan muddatda ijro etmagan, murojaatlarni ijobiy hal etilishiga befarq bo'lgan mas'ullarga ogohlantirishlar berildi.

2022-05-26 15:16:01